



“TASDIQLAYMAN”

“O‘zbek geologiya qidiruv” AJ

Boshqaruv raisi

Sh.P.Alimov

2025 yil “12” iyun

**“O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyati Axloq komissiyasining
2-sonli BAYONI**

Toshkent shahri

2025 yil “12” iyun

Komissiya raisi:

Moliyaviy ishlar bo‘yicha direktor

R. Radjapov

Komissiya raisi o‘rinbosari:

Kapital ta‘mirlash va ijtimoiy masalalar
bo‘yicha departament direktori

Y. Zakirov

Komissiya a‘zolari:

Bosh muhandis o‘rinbosari

B. Eshmurzayev

Xaridlar bo‘yicha direktor

Z. Ismailov

Yuridik bo‘lim boshlig‘i

G‘. Chuponov

Qimmatbaho metallar geologiyasi boshqarma boshlig‘i

Y. Jurayev

Ishlarni boshqarish bo‘lim boshlig‘i

A. Madjitov

Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat
bo‘limi boshlig‘i

D. Saidaxborov

Boshlang‘ich Kasaba uyushmasi raisi

M. Iminov

Xotin-qizlar masalalari bo‘yicha boshlang‘ich
tashkilot raisi

G. Jabborova

Komissiya kotibi:

Inson resurslarini boshqarish va
rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i

F. Umarov

Yig'ilish kun tartibi:

- 1. Aksiyadorlik jamiyati va uning tarkibiy bo'linmalarida faoliyat olib borayotgan yaqin qarindoshlar to'g'risidagi ma'lumot.**
- 2. Yaqin qarindoshlar bo'yicha qonunchilik.**
- 3. Masofaviy audit asosida aniqlangan Davlat ulushi mavjud korxonalarda nepotizm tahlili muhokamasi.**
- 4. Yaqin qarindoshlarni manfaatlar to'qnashuvining tegishli turiga kiritish.**

EShITILDI:

1. Kun tartibi masalasi bo'yicha Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limi boshlig'i D. Saidaxborov Axloq komissiyasiga jamiyat boshqaruv apparati va tarkibiy bo'linmalarda mehnat faoliyatini olib borayotgan xodimlarning yaqin qarindoshlari to'g'risida ma'lumotlarni boshqaruv raisining 2025-yil-17 apreldagi 01-334-sonli topshiriq faksogrammasi orqali aniqlik kiritilganini, hamda ma'lumotlarni jamlashda aksiyadorlik jamiyatida ishlaydigan yaqin qarindoshlarni bitta holat deya olingan shu sabab hozirda aksiyadorlik jamiyatida 361 ta holat bo'yicha yaqin qarindoshlar faoliyat yuritayotganligini yig'ilish qatnashchilariga ma'lum qildi.

2. Aksiyadorlik jamiyati yuridik bo'lim boshlig'i G'. Chuponov so'zga chiqib O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 121-moddasi, "Qarindoshlarning davlat tashkilotlarida birga xizmat qilish cheklash" *O'zaro yaqin qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo'lgan shaxslarning (ota-ona, aka-ukalar, opa-singillar, o'g'il va qizlar, er-xotin, shuningdek er-xotinning ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari) aynan bitta davlat tashkilotida birga xizmat qilishi, agar ularning birga xizmat qilishi ulardan birining ikkinchisiga bo'ysunishiga yoki uning nazorati ostida bo'lishiga bog'liq bo'lsa taqiqlanishi* haqida yetkazdi. Shuningdek yuqoridagi qoidag istisnolar bo'lishi mumkinligi va istisnolar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilani mumkinligi to'g'risida ushbu moddada takidlanganini aytib o'tdi. So'ng O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 14-noyabr sanasidagi 758-son "O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksini amalga oshirishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi Qarorining 3-ilovasi bilan "Qarindoshlarning birga ishlashlarini cheklash to'g'risidagi qoidalardan istisnolarga yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan davlat tashkilotlari xodimlarining Ro'yxati" mavjudligini o'qib eshittirdi.

3. 2025-yil 1-aprel sanasida masofaviy audit asosida aniqlangan Davlat ulushi mavjud korxonalarda nepotizm tahlili natijalariga ko'ra Jamiyatda 22 nafar bir-biriga yaqin qarindoshlar faoliyat olib borayotganligi holati aniqlangan. Ushbu 22 nafar xodimlar ham 361 ta holat bo'yicha yaqin qarindoshlar jadvalida mavjud.

4. Axloq komissiyasi a'zolari birma-bir so'zga chiqib qonunchilik va istisnolarni inobatga olib aksiyadorlik jamiyati va uning hududiy tarkibiy

bo'linmalaridagi 361 ta yaqin qarindoshlarning bir tashkilotda ishlashi mumkinligi va aksariyati bir-birining bo'ysunuvida emasligi va nazoratida bo'lmaganligi sababli ***ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi*** deb toppish hamda ularning haqiqiy manfaatlar to'qnashuviga aylanishini oldini olish bo'yicha monitoring va nazorat tadbirlarini olib borish tavsiyasi berildi.

Barcha komissiya a'zolarining fikr va mulohazalari tinglanib Axloq komissiyasi,

QAROR QILADI:

1. Qonunchilik va istisnolarni inobatga olib ***Dala geologiya (ekspeditsiyalari, uchastkalari va boshqa) tashkilotlari*** o'zaro yaqin qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo'lgan shaxslarning birga xizmat qilishi, ulardan birining ikkinchisiga bevosita bo'ysunishi yoki uning nazorati ostida ishlashga ruxsat berilsin.

2. Aksiyadorlik jamiyati boshqaruv apparati va hududiy tarkibiy bo'linmalar boshqaruvi apparati xodimlari uchun O'zbekiston Respublikai Mehnat Kodeksining 121-moddasi, "Qarindoshlarning davlat tashkilotlarida birga xizmat qilish cheklash" tartibi tadbiriq etilsin.

3. Aniqlangan 361 ta yaqin qarindoshlarning bir tashkilotda faoliyat yuritishi ***ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi*** deb hisoblansin.

4. Inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish bo'limi tomonidan manfaatlar to'qnashuvi nazoratini olib borsin.

5. Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limi va joylardagi mas'ullar tomonidan doimiy monitoringlar o'tkazib borilsin.

Komissiya raisi:


Moliyaviy ishlar bo'yicha direktor



R.Radjapov

Komissiya kotibi:

**Inson resurslarini boshqarish va
rivojlantirish bo'limi boshlig'i**



F.Umarov